

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

**UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi: 530 000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 60530200 - Geografiya

Qo‘qon– 2025

Fan/modul kodi TG11210		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1/2	Kreditlar 6/4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Umumiy tabiiy geografiya	60/60	120/60	180/120	
2.	<p style="text-align: center;">I. FANNING MAZMUNI</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga geografik qobiqning rivojlanishi, tuzilishi, bo'linishi, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro ta'sirini o'rgatish, Yer haqida umumiy va dastlabki tabiiy geografik bilimlarni, Yerning yadrosi, mantiyasi, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma'lumotlar va ularda ro'y beradigan hodisalar, ularning xususiyatlari haqida bilimlar berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, ularning mohiyati, geografik qobiqning tuzilishi, tarkibiy qismlari, litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosfera hamda ularning xususiyatlari, geografik qobiqning hududiy tabaqalanishi, inson va tabiat munosabatlarining geografik asoslarini o'rgatish va ularda tabiatdan foydalanishda geografik bilimlarni qo'llay olish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:</p> <p>Umumiy tabiiy geografiya fan dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Moskva davlat universiteti (Rossiya)ning “Введение в физическую географию с основами землеведения” fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 94-o'rinni egallagan bo'lib, geografiya sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.</p> <p>Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:</p> <p>Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Kursda tabiiy geografiyaning asosiy nazariy bilimlari bilan bir qatorda, yer yuzasining turli komponentlari (relyef, iqlim, suv, tuproq, o'simliklar dunyosi) va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish bo'yicha dala va laboratoriya mashg'ulotlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv talabalarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi.</p> <p>Xalqaro standartlarga muvofiqlik – Dastur tabiiy geografik tadqiqotlarning zamonaviy metodlari, jumladan, masofaviy zondlash ma'lumotlari, kartografik tahlillar, GIS texnologiyalari va tabiiy jarayonlarni modellashtirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bu, dasturning xalqaro ilmiy va ta'limiy me'yorlarga mosligini ta'minlaydi.</p> <p>Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – Talabalar tabiiy geografik hodisa va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini ilmiy asosda baholash, dalillarga tayangan holda ilmiy xulosa</p>				

chiqarish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu ularga atrof-muhitdagi murakkab jarayonlarni chuqur tushunish imkonini beradi.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-QISM

1-mavzu. "Umumiy tabiiy geografiya" faniga kirish

"Umumiy tabiiy geografiya" fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi.

2-mavzu. Geografik bilimlarning rivojlanish tarixi

Ilk geografik bilim kurtaklarining paydo bo'lishi. Antik davrda geografiyaning rivojlanishi. Tabiiy geografik g'oyalarning Aristotel, Eratosfen, Ptolemey, Strabon ishlarida rivojlantirilishi. Geografiya fanining o'rta asrlarda rivojlanishi. Mazkur davrda geografiya fanining Sharq mamlakatlarida rivojlanishi (Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Bobur va boshqalar). Buyuk geografik kashfiyotlarning geografiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati. XIX asrda ilmiy geografiyaning rivojlanishi. Geografiya fanining hozirgi paytda rivojlanishi. Geografik qobiq, biosfera, geografik muhit ta'limotlarining yaratilishi. O'zbekistonda tabiiy geografiya fanining rivojlanishi.

3-mavzu. Umumiy tabiiy geografiyaning tadqiqot usullari

Umumgeografik usullar, ekspeditsiya, tasviriy, qiyosiy, o'xshatish, tizimli, kartografik, tarixiy, aerokosmik usullar, dala tadqiqot, laboratoriya, geokimyoviy, modellashtirish, matematik usullar.

4-mavzu. Olam. Quyosh sistemasi, sayyoralar, asteroidlar, kometalar, meteor jismlar

Koinot haqida asosiy tushunchalar: Olam, Metagalaktika, Galaktika, yulduzlar, Quyosh sistemasi, Quyosh, sayyoralar, asteroidlar, meteorlar, meteoritlar, kometalar.

5-mavzu. Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora. Yerning shakli va harakatlari. Ularning geografik oqibatlari

Yer va uning asosiy o'lchamlari: og'irligi, shakli, diametri va radiusi. Yerga fazoning ta'siri. Magnitosfera. Yerning shakli va harakatlari. Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlari.

6-mavzu: Geografik qobiq

Geografik qobiqning umumiy tavsifi va asosiy xususiyatlari: moddalarning xilma-xilligi, nomuvozanatligi, tarkibining doimo murakkablashib borishi va h.k. Geografik qobiqdagi moddalarning kimyoviy va fizik xossalari. Geografik qobiqning tarkibiy qismlari.

7-mavzu. Geografik qobiqning vertikal tuzilishi. Litosfera va yer po'sti

Litosfera. Yerning ichki tuzilishi: yer po'sti, mantiya va yadro. Yer po'sti. Yer po'stining tarkibi. Yer po'sti tuzilishining asosiy xususiyatlari. Yer po'stini hosil qilgan tog' jinslari, ularning turlari.

8-mavzu: Geoxronologik jadval, asosiy tog‘ hosil bo‘lish bosqichlari

Geoxronologik jadval. Umumsayyoraviy relief shakllarining joylanishi. Platformalar, geosinklinallar, qalqonlar, plitalar. Tektonik harakatlar, uning turlari. Zilzila va vulqon. Litosfera plitalari. Materiklarning gorizontal harakati haqidagi nazariya.

9-mavzu: Yer yuzasining asosiy relief shakllari

Yer yuzasi tuzilishning asosiy xususiyatlari. Yer yuzasida quruqlik va suvlikning taqsimlanishi. Qit‘a va materik tushunchasi. Materiklar, orollar, yarim orollar. Relief hosil qiluvchi asosiy jarayonlar. Endogen (ichki) va ekozen (tashqi) kuchlar tushunchalari. Quruqlik yuzasidagi asosiy relief shakllari – tekislik, pasttekislik, adirlar, qirlar, platolar, tog‘ tizmalari, tog‘lik va yassi tog‘lik. Tog‘liklarning paydo bo‘lishi va balandligiga ko‘ra turlari. Cho‘kma va botiqlar. Gipsografik egri chiziq.

10-mavzu: Gidrosfera. Uning tarkibiy qismlari. Dunyo okeani

Gidrosfera haqida umumiy tushuncha. Uning tarkibiy qismlari. Suvning Yer yuzida taqsimlanishi. Suvning aylanma harakati, katta va kichik aylanma harakatlar. Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlari: dengizlar, bo‘g‘izlar, qo‘ltiqlar.

11-mavzu: Dunyo okeani suvning xususiyatlari, suvning xarakati

Okean suvining xususiyatlari: harorati, sho‘rligi, zichligi, tiniqligi, bosimi. Suvning harakatlari: to‘lqinlar, oqimlar va qalqish. Okean tubi reliefi. Suvosti tog‘ tizmalari, soylik (kotlovina) lar, suvosti cho‘kmalari (novlar). Batigrafik egri chiziq.

12-mavzu: Quruqlikdagi suvlar

Quruqlikdagi suvlar. Yer usti suvlari: daryolar, ko‘llar, botqoqliklar, muzliklar va muzloqlar. Daryolar va ularning geografik ishi. Vaqtincha oqar suvlar va ularning geografik ishi.

13-mavzu: Ko‘llar, ularning turlari va xususiyatlari, tabiatdagi roli

Ko‘llar va ularning turlari, hosil bo‘lishi va tarqalishi. Ko‘llarning tabiatdagi o‘rni va ahamiyati.

14-mavzu: Muzliklar, muzloqlar, to‘rtlamchi davr muz bosishlari

Xionosfera. Qor chizig‘i. Muzliklar va ularning ishi. Qoplama muzliklar va ular hosil qilgan relief shakllari. Muzloqlar. Botqoqliklar.

15-mavzu: Yer osti suvlari

Yer osti suvlari, ularning turlari va tarqalishi. Mineral va termal suvlar. Artezian suvlari.

2-QISM

1-mavzu: Atmosfera, uning tarkibi va tuzilishi

Atmosfera tushunchasi. Atmosferaning tarkibi. Atmosfera qatlamlari – troposfera, stratosfera, mezosfera, termosfera (ionosfera), ekzosfera, ozon qatlami. Quyosh radiatsiyasining kelishi va taqsimlanishi. Havo harorati va uning dinamikasi.

2-mavzu: Havo bosimi, bosim mintaqalari va markazlari

Havo bosimi. Barik relef. Past va yuqori bosim markazlari. Havo bosimini o'lchash.

3-mavzu: Havo massalari, siklonlar va antisiklonlar

Havo massalari va frontlari. Havo massalarining harakat turlari. Siklon va antisiklon tushunchalari.

4-mavzu: Shamollar va ularning geografik ishi

Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar. Atmosferadagi suvlar. Nisbiy va mutloq namlik. Bulutlar, ularning turlari. Yog'inlar – yomg'ir, qor, do'l, shudring, tuman. Yer sharida harorat va yog'inning taqsimlanishi. Iqlimning tabiat komponentlariga va vegetatsiya davriga ta'siri.

5-mavzu: Ob-havo va uning elementlari

Ob-havo va iqlim. Ob-havo va uning elementlari. O'rganish usullari. Ob-havoni prognozlash.

6-mavzu: Iqlim, uni hosil qiluvchi omillar va iqlim mintaqalari

Iqlim. Yer shari iqlimi. Iqlim hosil qiluvchi omillar va jarayonlar. Iqlimning vertikal va gorizontal o'zgarishlari. Kontinental, dengiz, oraliq va musson iqlimlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Iqlim mintaqalari va issiqlik mintaqalari. Iqlimdagi o'zgarishlar, uning sabablari va oqibatlari. O'zbekiston iqlimidagi o'zgarishlar. Iqlim o'zgarishini uzoq muddatli prognoz qilish.

7-mavzu: Geografik qobiqning gorizontal tuzilishi. Biosfera

Biosfera. Hayotning tarqalish chegerasi. Organizmlarning turlari va ularning vazifasi. "Ekologiya" fani haqida tushuncha. Ekologiya, ekologik holat (vaziyat), tabiatni muhofaza qilish tushunchalari. Ekologik omillar (abiotik va biotik). Ekotizim. Biotsenoz, fitotsenoz, zootsenoz, biogeotsenoz. Okeanlarning organik dunyosi (plankton, nekton, bentos). Biomassa.

8-mavzu: Nurash va uning ahamiyati, turoqlar, pedosfera

Nurash va nurash qobig'i. Pedosfera. Tuproq qatlami va uning inson hayotida tutgan o'rni.

9-mavzu: Tuproqlarning asosiy tiplari va tarqalishi

Tuproqlarning turlari, ularning Yer yuzi bo'yicha tarqalishi. Tuproq hosil qiluvchi omillar. Tuproq profili (kesmasi). Tuproqning umumiy fizik xossalari. Tuproqlarning inson tomonidan o'zgartirilishi. Tuproq eroziyasi. O'zbekiston tuproqlari va ulardan foydalanishning ekologik jihatlari.

10-mavzu: O'simliklar va hayvonot dunyosi

O'simliklar dunyosi, ularning asosiy turlari. O'simliklarning tekislik va balandliklar bo'yicha tarqalishi. Hayvonot dunyosi, ularning yer yuzida tarqalishi. Hayvonot dunyosi va tabiiy muhit.

11-mavzu: Geografik landshaft

Landshaft haqidagi tushunchalar. Landshaft komponentlari va landshaft hosil qiluvchi omillar. Landshaftlarning morfologik qismlari.

12-mavzu: Geografik qobiqning harakatlari va rivojlanishi

Geografik qobiqning issiqlik manbalari (ichki va tashqi). Geografik qobiqqa quyosh isiqqligining kelishi. Modda va energiyaning aylanma harakati. Litosferadagi aylanma harakatlar. Mantiyada moddalar harakati, litosfera

plitalari harakati. Tog' tizmalarining hosil bo'lishi. Geosinklinallarning rivojlanishi. Atmosfera harakatlari. Issiqlik mashinalari. Okean va quruqlik o'rtasida issiqlikning kundalik, fasliy va yillik aylanma harakati. Suvning aylanma harakati. Okeanda oqimlarning harakati. Okeanlarda suvlarning vertikal almashinishi.

13-mavzu: Geografik qobiqning rivojlanish manbalari

Rivojlanish manbalari. Geosferalarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Geografik qobiq tarkibiy qismlarining rivojlanishi (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera). Geografik qobiq rivojlanishining asosiy bosqichlari. Yerdagi hayotning paydo bo'lishi. Geografik qobiqning to'rtlamchi davrda rivojlanishi. Yer yuzasi tabiati rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.

14-mavzu: Jamiyat va geografik qobiq

Geografik qobiqning inson tomonidan o'zgarishi. Jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri. Inson - tabiatdagi yangi kuch. Geografik muhit haqida tushuncha. Inson va atrof-muhit. Hozirgi ilmiy-texnik jadallashtirish va uning geografik qobiqqa ta'siri. Atrof-muhit monitoringi.

15-mavzu: Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari

Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari. Insoniyatning global muammolari: energiya, oziq-ovqat, chuchuk suv, xom ashyo muammolari.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BUYICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

1-QISM

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Geografik bilimlarning rivojlanish tarixi.
2. O'rta Osiyolik allomalarning geografiya fanini rivojlanishiga qo'shgan hissalari.
3. Quyosh sistemasi jadvali va uning tahlili, sayyoralarning tavsifi.
4. Platformalar, geosinklinallar, plitalar va qalqonlar, plitalar harakati, rift zonalar.
5. Gradus to'ri, uning elementlari. Geografik koordinatalarni topish.
6. Tropiklar, qutbiy doiralar. Quyosh turish nuqtalari. Fasllar almashinishi. Taqvim.
7. Geoxronologik jadval va uning tahlili.
8. Yer po'stining tuzilishi xaritasini ishlash va tahlil qilish
9. Tog' hosil bo'lish bosqichlari. Turli bosqichda hosil bo'lgan tog'lar.
10. Dunyoning tabiiy xaritasini ishlash va uning tavsifi.
11. Dunyoning yirik geografik ob'ektlarini xaritaga tushirish va ularning tasnifi.
12. Dunyo okeani suvi xususiyatlari, okean tubi reliefi, oqimlari xaritasini ishlash.

13. Dunyo okeani suvi xususiyatlari, okean tubi reliefi, oqimlari xaritalari tavsifi.

14. Hidrografik ob'ektlar nomlari ro'yxatini tuzish va ularni o'rganish.

15. Quyosh sistemasi, litosfera va gidrosfera mavzulari yuzasida kollokvium.

2-QISM.

1. Ob-havo elementlarini o'lchash asboblari bilan tanishish.

2. Dunyoning iqlim xaritasiini yozuvsiz xaritaga tushirish.

3. Dunyoning iqlim xaritasiini tahlil qilish.

4. Dunyoning iqlim mintaqalari xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirish.

5. Dunyoning iqlim mintaqalari xaritasini tahlil qilish

6. Yer yuzida tuproqlarning tarqalishi xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirish

7. Yer yuzida tuproqlarning tarqalishi xaritasini tahlil qilish va topshirish .

8. Geografik mintaqalar va zonalar xaritasini yozuvsiz xaritaga tushirish

9. Geografik mintaqalar va zonalar xaritasini tahlil qilish va topshirish

10. Har bir tabiat zonasi uchun xos o'simlik va hayvonot dunyosi dunyosi jadvalini ishlash.

11. O'simliklar va hayvonot dunyosi jadvallarini topshirish.

12. Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolarini o'z o'lkasi misolida o'rganish

13. Jamiyat va geografik qobiq

14. Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari

15. Atmosfera, biosfera va Geografik qobiq mavzulari yuzasidan kollokvium.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Geografiyaning rivojlanish bosqichlari.

2. Olam, Galaktika, Quyosh sistemasi.

3. Yerning shakli va harakatlari.

4. Yerning o'z o'qi atrofida aylanishining geografik oqibatlari.

5. Yerning Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlari.

6. Geografik qobiq, uning tarkibi va tuzilishi.

7. Litosfera va uning tuzilishi.

8. Yerning ichki tuzilishi.

9. Atmosfera va uning tuzilishi.

10. Havo massalari va frontlari.

11. Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar.

12. Atmosferadagi suvlar. Nisbiy va mutloq namlik.

13. Gidrosfera va uning tarkibiy qismlari.

14. Ko'llar va ularning turlari.

15. Biosfera va uning tuzilishi.

16. Geografik qobiqning to'rtlamchi davrda rivojlanishi.

3. V. TA'LIM NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

	<p>Koinot, Quyosh sistemasi, Yer va uning Quyosh sistemasidagi o‘rni; geografik qobiq, litosfera, gidrosfera va uning tarkibiy qismlari, atmosfera, biosfera, geografik muhit va inson munosabatlarining geografik asoslariga oid nazariy qarashlar haqida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;</p> <p>Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishi hamda ularning geografik oqibatlarini tajribada ko‘rsatib bera olish; relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar va relefning asosiy shakllarini ajratish; ob-havo va uning elementlarini o‘lchash asboblaridan foydalana olish; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha xulosalar olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;</p> <p>Geografik qobiq va tabiat komponentlari, ular orasidagi aloqadorliklarni tadqiq etish; tabiat komponentlari va landshaftlarni xo‘jalik maqsadlarida baholay oladi hamda ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha xulosalar chiqara olish; relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar va relefning asosiy shakllarini ajratish, ob-havo va uning elementlarini o‘lchash asboblaridan foydalana olish; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha xulosalar chiqarish malakasiga ega bo‘lishi kerak.</p>
	<p style="text-align: center;">VI. MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tabiiy geografiya fani nimani o'rganadi va uning asosiy bo'limlari (komponentlari) qaysilardan iborat? 2. Tabiiy geografiyani o'rganishda nazariy bilimlarni amaliy (dala va laboratoriya) mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishning ahamiyati nimada? 3. Tabiiy geografik tadqiqotlarda GIS, masofaviy zondlash va kartografik tahlil kabi zamonaviy texnologiyalar qanday qo'llaniladi? 4. Tabiiy geografik qobiqning asosiy komponentlari (atmosfera, gidrosfera, litosfera, biosfera) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ta'sirchanliklarni izohlang. 5. Muayyan bir tabiiy geografik jarayon (masalan, eroziya, iqlim o'zgarishi ta'siri yoki suv rejimi) sabablari, rivojlanishi va oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilish qanday amalga oshiriladi? 6. Tabiiy geografik muammolarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasining roli qanday?
4.	<p style="text-align: center;">VII. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VIII. KREDITLARNI OLIISH UCHUN TALABLAR:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil</p>

	mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish/testni topshirish.
6.	<p style="text-align: center;">ASOSIY ADABIYOTLAR</p> <p>1. Abdunazarov O'.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Ibragimova R.A. Ibraimova A.A. Umumiy tabiiy geografiya. Darslik. -Toshkent, 2020.</p> <p style="text-align: center;">QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR</p> <p>1. Ibragimova R.A., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017. – 186 b.</p> <p>2. Vahobov H. va boshq. Umumiy Yer bilimi. Darslik. –T.: “Bilim”, 2005.</p> <p>3. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik.–T.: “Turon zamin ziyo”, 2016.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>4. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.</p> <p>5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>6. http://nature.web.ru</p> <p>7. www.globalscience.ru</p> <p>8. www.lomonosov-fund.ru</p> <p>9. https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Vvedenie_v_fizicheskuyu_geografiyu_2021.pdf</p>
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	<p style="text-align: center;">FAN/MODUL UCHUN MAS'UL:</p> <p>O.Q.Tobirov - QDU “Geografiya va iqtisodiyot” kafedrası mudiri, g.f.f.d. (PhD)</p>
9.	<p style="text-align: center;">TAQRIZCHILAR:</p> <p>O. Qo'ziboyeva - QDU “Geografiya va iqtisodiyot” kafedrası professor, g.f.f.d. (DSc)</p>

Kafedra mudiri:

O.Tobirov

Fakultet dekani:

V.Xo'jayev